



IQTIDORLI, ISTE'DODLI, SERMAHSUL, SERG'AYRAT TILSHUNOS OLIM



Yaqinda serqirra, sermahsul olim filologiya fanlari doktori, professor Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich tavalludiga 60 yil, ilmiy-pedagogik faoliyatiga 40 yil to'radi. Shu munosabat bilan olimning hayoti va ilmiy-pedagogik faoliyati xususida fikr yuritishni maqsad qildik.

Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich 1966-yil 25-noyabrda Namangan viloyati Chortoq tumanining Koroskon qishlog'i (hozirgi shaharchasi)da ziyoli oilada tug'ilgan.

1983-yilda Chortoq tumanidagi 3-o'rta maktabni "Oltin medal" bilan bitirgan va shu yili Namangan davlat pedagogika instituti (hozirgi Namangan davlat universiteti)ning o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga imtiyozli qabul qilingan. 1985–1987-yillarda harbiy xizmatda bo'lgan, keyin o'qishni sirtqi bo'limda davom ettirgan.

U mehnat faoliyatini 1987-yilda Chortoq tumanidagi 1-o'rta maktabda o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi sifatida boshlagan. 1990-yilda Namangan davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti fakultetining sirtqi bo'limini muvaffaqiyatli tugatgan.

1991-yilda Namangan davlat pedagogika institutining sirtqi bo'limiga metodist lavozimiga ishga qabul qilingan. 1992-yil noyabrda o'zbek tilshunosligi kafedrasiga o'qituvchilikka o'tkazilgan.

1996–2004-yillarda o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi lavozimlarida ishlagan, 2005-yilda dotsent unvonini olgan.

U 1993–2000-yillarda o‘zbek filologiyasi fakulteti dekanining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, 2004–2005-yillarda o‘zbek filologiyasi fakulteti dekani, 2009–2010-yillarda o‘zbek va rus tillari fakulteti dekani, 2010–2012-yillarda o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti lavozimlarida ishlagan.

2012–2013-yillarda Namangan viloyati pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti prorektori, rektori lavozimlarida ishlagan.

2013–2016-yillarda Namangan davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, 2016-yildan professori lavozimlarida faoliyat olib borgan.

2019–2021-yillarda o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri lavozimida faoliyat yuritgan. Hozirda universitetning o‘zbek tilshunosligi kafedrası professori lavozimida mehnat qilmoqda.

N. Uluqov o‘zining pedagogik va rahbarlik sohasidagi vazifalari bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlarida ham yutuqlarga erishgan sarmahsul olim.

1997-yilda “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi” mavzuyida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan [Uluqov, 1997]. Nomzodlik dissertatsiyasi asosida olimning “Ekzotik leksika” nomli monografiyasi nashr etilgan. Monografiyada ekzotik leksikaning tilshunoslik va tarjimashunoslikdagi talqini, tadqiqi hamda lisoniy belgi-xususiyatlari, boshqa til vositalaridan farqli jihatlari, tarjima matnida qo‘llanishi, vazifasi, mavzuiy guruhlari o‘zbekcha diniy matnlar, aniqrog‘i, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning “Al-jomi’ as-sahih” (Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991–1996) nomli 4 tomdan iborat hadislar to‘plami asosida yoritilgan [Uluqov, 2022].

O‘zbek toponimikasining shakllanishi va taraqqiyotida H. Hasanov, S. Qorayev, Z. Do‘simov, T. Nafasov, S. Gubayeva, B. O‘rinboyev, Sh. Qodirova, L. T. Karimova, Y. Xo‘jamberdiyev, T. Rahmatov, J. Latipov, N. Oxunov, T. Enazarov kabi olimlarning xizmatlari tahsinga loyiqdir. Ular o‘zlarining toponimikaga oid fundamental tadqiqotlari bilan o‘zbek tili toponim (joy nom)larini o‘rganishning ilmiy-nazariy asosini yaratishdi, o‘zbek toponimikasi faniga asos solishdi va uni rivojlantirishdi. Mazkur tadqiqotlarda o‘zbek tilidagi joylarning nomlanishi, nomlanish motivlari va tamoyillari, lug‘aviy-ma’noviy, etimologik, morfemik hamda yasaliş xususiyatlari, tarqalish hududi (areali) tadqiq etildi, ammo o‘zbek tilshunosligida o‘zining tabiiyligi, qadimiyligi, turg‘unligi bilan xarakterlanuvchi, o‘ziga xos bir qator lisoniy xususiyatlariga ega bo‘lgan suv obyekti va inshootlarining atoqli nomlari — gidronimlar maxsus

to'planmagan va monografik tadqiq etilmagan edi. Binobarin, o'zbek tili gidronimiyasini onomastik makroko'lam sifatida o'rganish, gidronimika sohasining ilmiy-nazariy muammolarini belgilash kabi dolzarb masalalar o'z tadqiqini kutayotgan edi. Gidronimlarni o'rganish va to'plash, lisoniy jihatdan tadqiq etish ular mansub bo'lgan hudud tarixi, geografiyasi, tabiati, gidrologiyasi, aholisining etnik tarkibi, etnografiyasi, dialektlarini o'rganishda ham muhim manba hisoblanadi. Shu bois Nosirjon Uluqov shu masalaga doir ilmiy tadqiqot olib borishni o'z oldiga maqsad qildi va 2003-yilda doktorlik dissertatsiyasi ustida ish boshladi. Ko'p yillik mashaqqatli va samarali izlanishlardan so'ng professor Ernst Begmatov ilmiy maslahatchiligida 2010-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutidagi Birlashgan ixtisoslashgan kengashda "O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi" mavzuyida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va o'zbek tilshunosligida ilk bor gidronimiya sohasini monografik tadqiq etdi, onomastikaning gidronimika yo'nalishiga asos soldi [Uluqov, 2010].

Dissertatsiya yuzasidan olimning 50 yaqin maqolalari, "O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi" nomli monografiyasi [Uluqov, 2008] va "Gidronimik indikatorlarning lisoniy tadqiqi" nomli risolasi [Uluqov, 2012], "Namangan viloyatidagi suv obyekti nomlarining imlo lug'ati" nashr etildi.

Mazkur ilmiy ishning tadqiq obyekti o'zbek tili, asosan, Farg'ona vodiysi gidronimlari hisoblanadi. Shuningdek, Farg'ona vodiysi gidronimlariga qiyoslash, ilmiy-nazariy fikrlarni asoslashda O'zbekistonning boshqa hududlari gidronimik materiallaridan ham unumli foydalanilgan.

Tarixiy asarlar, O'zbekiston Respublikasi voha va vodiylari sug'orilish tarixiga oid ilmiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar, tabiiy-geografik xaritalar, suv xo'jaligi xaritalari, viloyatlar, tumanlar tarixiga oid ilmiy-ommabop, ilmiy asarlar, ensiklopedik, toponimik lug'atlar, dialektologik ekspeditsiya asosida to'plangan 3000 dan ziyod gidronimlar va gidrotoponimlar dissertatsiyaga obyekt qilib olingan.

Dissertatsiya "Gidronimlar va ularning tadqiqi", "Gidronimik indikatorlarning lisoniy tadqiqi", "O'zbek tili gidronimlarining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari", "O'zbek tili gidronimlarining xronologik tasnifi va etimologik tahlili", "O'zbek tili gidronimlarining hosil bo'lishi va tarkibiy tuzilishi" kabi besh bobdan iborat bo'lib, unda gidronimlarning lisoniy maqomi va uning doirasi, ko'lami, gidronimika sohasi o'rganadigan ilmiy-nazariy, amaliy masalalar, tilshunoslikning boshqa soha va bo'limlari bilan gidronimikaning aloqasi, boshqa fanlar bilan munosabati masalalari mukammal yoritilgan.

Tabiiy va sun'iy suv obyektlari hamda inshootlarning maxsus nomlari gidronimlar, ularning majmui esa gidronimiya deb yuritiladi. Toponimlarning bir turi — gidronimlar xalq tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, milliy tilning, xalq ijtimoiy hayoti, madaniyati va ma'naviyatining o'ziga xos qirralarini ifoda etuvchi lisoniy qatlam hamda xazinadir. Joy nomlari, jumladan, gidronimlar ham ajdodlarimizdan hozirga qadar yetib kelgan ulkan madaniy-ma'naviy meros, milliy qadriyatlarning bebaho namunasidir.

Olim *ariq, band // to'g'on, botqoq, buloq, daryo, dengiz, yop, jilg'a, zovur // zakan, zaxkash, irmoq, ariq, quduq, koriz* kabi 40 dan ziyod turdagi suv obyekti va inshootlari nomlari gidronimlar, ya'ni gidronimiyani tashkil etishini ilmiy va amaliy jihatdan asoslagan: *Damariq, Buvaydaariq, Uchqo'rg'on to'g'oni, Uchbuloq, Shirmoybuloq, Norin, Orol dengizi, Ilonko'z, Lochinjilg'a* kabi [Uluqov, 2008].

Tadqiqotda tilshunoslikdagi gidronimiyaga doir tadqiqotlar tahlil qilingan hamda ularga munosabat bildirilgan, gidronimlarga kiruvchi suv obyekti va inshootlarining atoqli nomlari doirasi, gidronimika sohasi o'rganadigan ilmiy masalalar ko'lamini belgilangan, gidronimlar tarkibida asosiy o'rin tutuvchi o'zbek tili gidronimik indikatorlari lug'aviy-ma'naviy, etimologik jihatdan tahlil qilingan, ularning onomastik vazifalari boy dalillar asosida yoritilgan, Farg'ona vodiysi gidronimiyasi materiallari asosida o'zbek tili gidronimlarining lug'aviy, xronologik, struktural tasnifi berilgan, gidronimlarning nomlanish tamoyillari va motivlari, gidronimlarning boshqa atoqli ot tiplari bilan munosabati, transonimizatsiya va onomastik konversiya hodisalari, ularning bir-biridan farqli jihatlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning yana bir yutug'i shundan iboratki, to'plangan gidronimlar nisbiylik, pozitivlik, negativlik tamoyil (prinsip)lari asosida tasnif qilinib, leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, etimologik, struktur-tipologik, areal metodlar asosida lisoniy tahlil qilingan.

Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevichning doktorlik dissertatsiyasi xorijiy va mahalliy oliy o'quv yurtlarining yetakchi olimlari bergan taqrizlarning barchasida ijobiy baholanib, doktorlik dissertatsiyalari oldiga qo'yiladigan barcha talablariga javob berishi, dissertatsiya va avtoreferati OAK talablariga to'la mosligi, uning muallifi filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olishga loyiq ekanligi alohida ta'kidlangan.

Olimning doktorlik dissertatsiyasiga rasmiy opponentlik qilgan filologiya fanlari doktorlari, professorlar Z. Do'simov, B. O'rinboyev, N. Husanov va norasmiy opponentlar filologiya fanlari doktori, akademik G'. Abdurahmonov, filologiya fanlari doktori, professor A. Nurmonov kabi o'zbek tilshunosligining darg'alari ishni yuksak baholashgan, ilmiy-nazariy

xulosalari o'zbek toponimikasini, jumladan, gidronimika sohasini muhim ilmiy qarashlar bilan boyitganligini, ishning ilmiy tahlili, nazariy qarash va usullaridan respublikaning turli hududlari gidronimiyasini o'rganishda keng foydalanish mumkinligini ta'kidlashgan. Bu e'tiroflar o'tgan yillar davomida o'z tasdig'ini topdi.

Professor Nosirjon Uluqov serqirra va sermahsul olim. U tilshunoslikning leksikologiya, xususan, onomastika, terminologiya, lingvokulturologiya, leksikografiya sohalarida ilmiy izlanishlar olib boradi. Hozirga qadar olimning 350 dan ziyod ilmiy, ilmiy-ommabop, metodik maqolalari respublika, xalqaro ilmiy konferensiyalar to'plamlarida, "O'zbek tili va adabiyoti", "Til va adabiyot ta'limi", "Filologiya masalalari", "Namangan davlat universiteti axborotnomasi", "Ilm sarchashmasi", "Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi" kabi nufuzli ilmiy jurnallarda va Amerika, Polsha, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston kabi xorijiy hamda qardosh mamlakatlarda nashr etilgan.

N. Uluqov ilmiy faoliyatini ta'lim tizimi bilan uyg'unlikda olib boradi. U yaxshi metodist olim ham. U mehnat faoliyatini umumiy o'rta maktabda boshlagan, keyinchalik o'rindoshlik asosida maktablarda, Namangan davlat universiteti qoshidagi akademik litseylarda ham ishlagan, ona tili ta'limiga oid hammualliflikda metodik qo'llanmalar ham yaratgan [Uluqov, 2005; Uluqov & Nurmonova, 2006; Mavlonov, Uluqov & Boynazarov, 2007].

U uzoq yillardan beri uzviy va izchil tarzda "Tilshunoslik nazariyasi", "Umumiy tilshunoslik", "Turkiy filologiyaga kirish", "Nazariy tilshunoslik" kabi ixtisoslik fanlaridan dars beradi. Har o'quv yilida universitetda, viloyat malaka oshirish kurslarida va xorijiy oliy o'quv yurtlarida mahorat darslari o'tadi, darslari ekspertlar tomonidan doimo a'lo baholanadi. E'tiborlisi, olim o'zi saboq beradigan fanlarning barchasiga oid o'quv adabiyotlarini tayyorlagan. Professor N. Uluqovning filologik ta'limga oid "Bitiruv-malakaviy ish" (2000), "Turkiy filologiyaga kirish" (2003), "Tilshunoslik nazariyasi" fanidan kurs ishlari" (2010), "Ona tili madhi" (2014), "Ilm hikmati" (2014)), "Botanik terminlar lug'ati" (2015), "Tilshunoslik nazariyasi (amaliy va seminar mashg'ulotlari)" (2016), "Magistrlik dissertatsiyasi" (2016), "Nazariy tilshunoslik masalalaridan kurs ishi" (2016), "Nutq madaniyati talqini illari" (2017), "Turkiy filologiyaga kirish" (2018), "Tilshunoslik nazariyasi" (2019), "O'zbek terminologiyasi (seminar mashg'ulotlari)" (2024) kabi 15 dan ziyod o'quv qo'llanma va darsliklari fikrimizning dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiyasi bilan 2016–2020-yillarda N. Uluqovning "Tilshunoslik nazariyasi", "Tilshunoslik nazariyasi (amaliy va seminar mashg'ulotlar)" nomli

kitoblari 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida nashr etilgan. So‘nggi yillarda mazkur o‘quv qo‘llanmalar negizida darsliklar nashr etildi va amaliyotda keng foydalanilmoqda [Uluqov, 2024; Uluqov, 2026].

Olimning ilmiy-pedagogik faoliyati Respublika miqyosida ham e’tirof etilgan. N. Uluqov 2016-yili “Oliy ta’lim muassasasining eng yaxshi pedagogi” tanlovi Respublika bosqichining gumanitar fanlar ta’lim sohasi bo‘yicha “Eng yaxshi pedagog-tadqiqotchi” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rinni olib, g‘olib bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Faxriy diplom”i va katta miqdordagi moddiy mukofot bilan taqdirlangan.

Nosirjon Uluqov iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va tayyorlash borasida o‘zining maktabini yaratgan olim. Uning rahbarligi va tashkilotchiligida Namangan davlat universitetida lingvistika (o‘zbek tili) bo‘yicha magistratura yo‘nalishi ochilgan va hozirga qadar faoliyat yuritmoqda. U ustoz-shogirdlik an‘analari asosida iqtidorli talabalarni bakalavr bosqichidan tanlab, tarbiyalab, magistratura mutaxassisligi va doktorantura ixtisosliklarida tahsil olishga, ilmiy tadqiqot olib borishga yo‘naltirgan, ilmiy rahbarlik qilib, ilmiy darajali kadr sifatida shakllanishiga erishgan. Hozirda olim bilan universitetda aynan bir kafedrada va Namangan davlat pedagogika instituti hamda boshqa xususiy oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari, dotsentlar Nargiza Pazliddinova, Dilorom Islomova, Havasxon Solixo‘jayeva, Otabek Yuldoshev, Barchinoy Yunusova, Muhammadjon Abdurahmonov, Dildora Sotiboldiyeva, Muhtaram Ikromova, Durдона Alijonovalarning ilmiy-pedagogik takomili buning yorqin dalilidir.

Bir necha yillardan beri iqtidorli talabalarning “Yosh tilshunoslar” ilmiy klubiga rahbarlik va murabbiylik qiladi. U tarbiyalagan iqtidorli yoshlar o‘z sohasi bo‘yicha yuksak natijalarni qo‘lga kiritgan. N. Uluqov ilmiy rahbarligida “Yosh tilshunoslar” klubining a‘zolaridan Dilorom Ergasheva (1999), Ziyoda Mamajonova (2000), Umidjon Qo‘ziyev (2005), Namuna Bahodirova (2015) lar o‘zbek tili va adabiyoti fani bo‘yicha O‘zbekiston milliy universiteti va Farg‘ona davlat universitetlarida o‘tkazilgan respublika olimpiadasi g‘olib bo‘lishgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 1-, 2-, 3-darajali diplomlari bilan taqdirlanishgan.

Olimning mas’ul muharrirligi va rahbarligida klub a‘zolari, yosh tadqiqotchilar va iqtidorli talabalar hamda filolog olimlarning ilmiy maqolalari “Ilm ummonidan qatralar”, “Til va adabiyot masalalari” nomli

to‘plamlarda muntazam nashr etib boriladi. Hozirga qadar “Ilm ummonidan qatrallar” ilmiy to‘plamining 17 ta, “Til va adabiyot masalalari” nomli to‘plamning 15 ta soni nashr etilgan. “Ilm ummonidan qatrallar” to‘plamida ilk maqolalari bosilgan klub a‘zolarining bir nechasi hozirda ilmiy daraja olib, Qarshi, Namangan davlat universitetlarida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Hozirga qadar uning ilmiy rahbarligida 100 dan ziyod bitiruv-malakaviy ishi, 30 dan ziyod magistrlik dissertatsiyasi, 20 ga yaqin filologiya va pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi.

Professor Nosirjon Uluqov o‘zbek tili onomastikasining darg‘asi Ernst Begmatovning shogirdi va izdoshi sifatida mazkur sohaning rivojiga munosib ulush qo‘shmoqda. Doktorlik dissertatsiyasi, monografiyalari, ilmiy maqolalari, jumladan, E. Begmatov bilan hammualliflikda yaratgan, hozirda soha bo‘yicha ko‘p ilmiy tadqiqotlarga turtki berayotgan, asos bo‘layotgan hamda ilmiy manbalarda e‘tirof etilayotgan onomastika terminlarining izohli lug‘ati [Begmatov & Uluqov, 2008], onomastik bibliografik ko‘rsatkich [Begmatov & Uluqov, 2006], uning rahbarligida bajarilayotgan xalqaro ilmiy loyihalar hamda soha rivoji va takomili borasidagi faoliyati ham fikrimizni tasdiqlaydi. Onomastikaga oid barcha tadqiqotlarda mazkur manbalarga tayaniladi, havolalar olinadi.

Olim Namangan onomastika maktabiga asos soldi. Uning ilmiy rahbarligida 19 nafar yosh tadqiqotchi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qildi, ularning deyarli barchasi onomastika sohasiga taalluqli. Pazliddinova Nargiza o‘zbek tili fitonimiyasini, Ne‘matova Yulduz Namangan viloyati oykonimiyasini, Temirov Sherhali Samarqand viloyati oronimiyasini, Kenjayeva Sabohat o‘zbek tili antroponimiyasining nominatsion-motivatsion tasnifi va tavsifini, Solixojayeva Havasxon xrononimiya va geortonimiyani, Yuldoshev Otabek gemoronimiya va gemoronimik birliklarni, Yunusova Barchinoy “Alpomish” dostoni onomastik birliklarini, Sotiboldiyeva Dildora toponimik birliklarda konversiya va transonimizatsiya masalasini, Islomova Dilorom toponimik indikatorlarning semantik-funksional xususiyatlarini, Mirzaxmedova Oygul Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi onomastik birliklarni o‘rgandi¹.

¹ Пазлидинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. – Фарғона, 2018. – 54 б.; Неъматова Ю.О. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. – Фарғона, 2018. – 52 б.; Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. – Самарқанд, 2019. – 52 б.; Салихаджаева Х.З. Ўзбек тили хрононим ва геортонимларининг лисоний тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. – Фарғона, 2020. – 58 б.; Кенжаева С.Э. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион-мотивацион асослари ва тавсифи: Филол. фан. бўйича фалсафа

Olim ilmiy-pedagogik faoliyatda tashabbuskor va faol tashkilotchi sifatida universitet, fakultet, kafedra hayotida ham alohida o‘rin tutadi. 2006-yilda “O‘zbek filologiyasining dolzarb masalalari”, 2010-yilda “Актуальные проблемы русской и узбекской филологии” mavzularida respublika ilmiy-nazariy konferensiyalari, 2004-yildan to 2010-yilgacha muntazam rusiyzabon talabalar uchun davlat (o‘zbek) tili bo‘yicha respublika olimpiadasi Namangan davlat universitetida o‘tkazilgan. Bu borada olimning so‘nggi yillardagi faoliyatiga tahsinga loyiq. Olim rahbarligida Namangan davlat universitetida 2022-yildan beri har ikki yilda “Onomastik birliklarning sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik, lingvokulturologik tadqiqi” mavzusida xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazilmoqda [Uluqov, 2024].

Turkiya Respublikasining Egey universiteti bilan hamkorlikda turkiy tillar onomastikasi tadqiqiga bag‘ishlangan, qardosh xalqlar onomastlarining birlashtiruvchi III Xalqaro onomastika simpozumi 2023-yilda O‘zbekistonda professor Nosirjon Uluqov rahbarligi va ma’sulligida Namangan davlat universitetida o‘tkazildi va sohaning dolzarb masalalar muhokama qilindi [III Uluslararası sempozyumu, 2023].

Yana yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2026-yilda respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga muvofiq 2026-yil 5–6-iyun kunlari filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatovning 90 yilligiga bag‘ishlangan “O‘zbek tilshunosligi rivoji va takomilida Ernst Begmatov ilmiy merosining o‘rni” mavzusida Respublika ilmiy-nazariy anjumanini o‘tkazildi. Konferensiya yalpi va “Ernest Begmatovning ilmiy merosi va o‘zbek tilshunosligi rivoji”, “Onomastika masalalari”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik masalalari”, “Psixolingvistika va nutq uslubiyati masalalari”, “Terminologiya va til ta’limi masalalari”, “Zamonaviy tilshunoslik masalalari”, “Lingvopoetika

док. (PhD) диссер. автореф. – Қарши, 2020. – 50 б.; Низомова Ш. Ўзбек тахаллусларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. – Наманган, 2021. – 60 б.; Ҳамидова К. Фарғона водийси топонимиясида вариантлик: юзага келиш омиллари, турлари ва функционал хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. – Қўқон, 2022. – 56 б.; Юнусова Б. М. “Алпомиш” дostonи ономастик birlikларининг лексик-семантик ва услубий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. – Наманган, 2022. – 60 б.; Yuldashev O.T. O‘zbek tili gemeronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) disser. avtoref. – Namangan, 2023. – 56 b.; Sativoldiyeva D.S. O‘zbek tili toponimik tizimida konversiya va tranonimizatsiya: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) disser. avtoref. – Namangan, 2024. – 58 b.; Xalilova H. Qo‘qon xonligi tarixiga doir manbalardagi antroponimlarning sotsiolingvistik va lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) disser. avtoref. – Qo‘qon, 2025. – 58 b.; Islomova D.A. Toponimik indikatorlarning leksik-semantik va funksional tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) disser. – Namangan, 2026. – 161 b.; Mirzaxmedova O. A. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi onomastik birliklarning tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) disser. – Namangan, 2026. – 147 b.

masalalari” nomli 7 ta sho‘ba majlislarida 140 dan ziyod respublika oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari, doktorantlar, magistrantlar va talabalarning ma‘ruzalari tinglandi [O‘zbek tilshunosligi, 2026].

N. Uluqov rahbarligida Turkiya Respublikasining Egey universiteti Turk dunyosi ilmiy-tadqiqot instituti olimlari bilan hamkorlikda 2024–2026-yillarda 890 000 000 so‘mlik FL-7523021174-sonli “O‘zbek va turk geortnimlarining lingvokulturologik, etnolingvistik tadqiqi” nomli fundamental xalqaro ilmiy loyiha muvaffaqiyatli bajarildi. Loyiha doirasida o‘nlab maqolalar, hammualliflikda 2 ta monografiya, 1 ta ilmiy risola va kichik ensiklopedik lug‘at yaratildi.

“O‘zbek va turk geortnimlarining etnolingvistik, lingvokulturologik tahlili” nomli monografiyada va ilmiy risolada geortnim onomastik birligining lisoniy maqomi, talqini va tadqiqi, geortnimika sohasining nazariy masalalari, predmeti, obykti va dolzarb vazifalari, geortnimiya onomastik ko‘lami va geortnimik birliklar, indikatorlar, geortnimiyaning tarixiy manbalari, o‘zbek va turk geortnimlarining leksik-semantik tasnifi hamda etnolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlari yoritilgan, o‘zbek va turk bayramlari bilan bog‘liq lingvokulteremalar: kishi ismlari (antroponimlar), shior va paremlar (maqol, matallar), taom, shirinlik nomlarining tahlili berilgan [Uluqov, Solixadjayeva & Qoraboyev, 2025].

“O‘zbek va turk tili geortnimlari” deb atalgan ilmiy risolada esa o‘zbek va turk tili geortnimik birliklari, diniy, xotira kunlari bilan bog‘liq geortnimlari, ikki xalqning gul bayramlari, ayrim turk milliy geortnimlari hamda o‘zbek lingvomadaniyatiga xos qovun saylining lingvokulturologik xususiyatlari yoritilgan [Uluqov & Solixadjayeva, 2026].

N. Uluqovning “Bayram turizmi manbalari va yo‘nalishlari” nomli monografiyada O‘zbekistonda turizm va uning istiqbollari, turizm turlari va ularning lisoniy tavsifi, milliy va xalqaro bayramlar turizmi, xalq sayillari va gul bayramlari turizmi, Namangan gul bayrami, Xiva, Buxoro qovun sayillari turizmi, hunarmandchilik festivallari turizmi yo‘nalishlari, manzillari va lingvokulturologik xususiyatlari, “Lazgi” xalqaro raqs festivali turizmi tahlili berilgan [Uluqov, 2025].

Olim tomonidan shogirdlari va turk hamkorlar hammualliflikda yaratilgan “O‘zbek va turk geortnimlari” nomli kichik ensiklopedik lug‘at “O‘zbek tili geortnimlari”, “Turk tili geortnimlari” kabi bo‘limdan va ular o‘z ichida 7–8 ta qismdan iborat bo‘lib, ikki qardosh o‘zbek va turk xalqlariga mansub milliy va xalqaro geortnimlar: umumxalq bayramlari, muhim sanalar, kasb va sport bayramlari, sayillar, festivallar, tanlovlar, tantanalar,

shodiyonalar, ko'rgazma va yarmarkalarning kelib chiqish tarixi, yuzaga kelishi bilan bog'liq tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillar, nishonlanish sanasi, davomiyligi, xronikasi, hududi, tarqalishi, maqsad va vazifalari, milliy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, tarixiy-etimologik xususiyatlari izohlangan [O'zbek va turk geontonimlari, 2026]. Loyiha doirasida nashr etilgan mazkur tadqiqotlar hozirda dolzarb vazifa bo'lgan fanlar integratsiyasi nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lib, tilshunoslik sohasini, xususan, uning onomastika, lingvokulturologiya, etnolingvistika yo'nalishlarini tarixshunoslik, madaniyatshunoslik, etnologiya, etnografiya, turizm kabi sohalar bilan bog'laydi hamda bu fanlarning barchasi uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

N. Uluqov Namangan davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy kengash hamda ilmiy seminarlarda rais, rais o'rinbosari va a'zo sifatida faoliyat yuritdi. 30 dan ziyod filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalariga rasmiy opponentlik, o'nlab ilmiy, ilmiy-metodik kitoblarga mas'ul muharrirlik ham qildi.

Hozirda Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD 03/04.06.2020/Fil76/04 raqamli ilmiy kengash raisi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy kengash a'zosi sifatida faoliyat yuritmoqda hamda bir necha yosh tadqiqotchilarning magistrlik va doktorlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik, maslahatchilik qilmoqda.

Uning tashabbusi va rahbarligida filologiya fakultetida tashkil etilgan "Filologiyaning dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy masalalari" mavzusida ilmiy seminar 2016-yildan to hozirgacha doktorant, magistrant va iqtidorli talabalarning ilmiy layoqatini rivojlantirish, ko'nikma va malakalarini o'rttirishda ilmiy maktab vazifasini bajarmoqda.

U Respublika va Namangan viloyati hokimligida tashkil etilgan toponimik komissiya a'zosi sifatida O'zbekiston Respublikasining til, geografik nomlar borasidagi siyosatini tashviq va targ'ib etish, bajarish borasida ham faollik ko'rsatmoqda. Respublika, viloyat ommaviy matbuotida til odobi, nutq madaniyati va joy nomlarini tartibga solish masalalariga doir 50 dan ziyod maqolalari nashr etilgan.

Olim ko'p yillik samarali mehnatlari va ta'lim-tarbiya jarayonining takomillashtirishda erishgan muvaffaqiyatlari uchun bir necha bor Namangan viloyati, Chortoq tumani hokimliklari va Namangan davlat universiteti rektorati "Faxriy yorliq"lari bilan taqdirlangan, tashakkurnomalarini olgan. 2020-yilda "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak

nishoni, 2023-yilda xalqaro “Dunyo talantlari tanlovi” natijalariga ko‘ra Qozog‘iston Respublikasining “Alisher Navoiy 580 yilligi” medali bilan taqdirlangan.

N. Uluqov iqtidorli, iste’dodli, sermahsul, serg‘ayrat tilshunos olim, tashkilotchi, talabchan pedagog, ustoz sifatida respublika, viloyat, shahar jamoatchiligi, universitet professor-o‘qituvchilari hurmatini qozongan. U bunday hurmat-e’tiborga o‘zining bilimdonligi, kamtarligi, mehnatsevarligi, odobi va fidoyiligi bilan erishgan.

Adabiyotlar

Улуков Н. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси : филол. фан. ном. ... диссер. — Тошкент, 1997. — 144 б.

Улуков Н. Экзотик лексика. — Тошкент: «Усмон Носир медиа» нашриёти, 2022. — 124 б.

Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: филол. фан. док. ... диссер. — Тошкент, 2010. — 299 б.

Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: монография. — Тошкент : Фан, 2008. — 192 б.

Улуков Н. Гидронимик индикаторларнинг лисоний тадқиқи. — Наманган, 2012. — 58 б.

Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи : монография. — Тошкент: Фан, 2008. — Б. 6–10.

Uluqov N., G‘oyibnazarova N. R. Ona tili. 6-sinf ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. — Toshkent: Tasvir, 2005. — 192 b.

Uluqov N., Nurmonova D. A. Ona tili. 9-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. — Toshkent: Tasvir, 2006. — 128 b.

Мавлонов Х., Улуков Н., Бойназаров Ф. Янги педагогик технология асослари (интерфаол дарслар). — Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2007. — 56 б.

Uluqov N. Turkiy filologiyaga kirish: universitetlarning 60230100 — Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-kursi talabalari uchun darslik. — Toshkent: Bookmany print, 2024.

Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi: Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi talabalari uchun darslik. — Toshkent: Bookmany print, 2026.

Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси: библиографик кўрсаткич. — Наманган, 2008. — 166 б.

Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. — Наманган, 2006. — 104 б.

Пазлидинова Н. З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. — Фарғона, 2018. — 54 б.

Неъматова Ю. О. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. — Фарғона, 2018. — 52 б.

Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. — Самарқанд, 2019. — 52 б.

Салихаджаева Х. З. Ўзбек тили хрононим ва геортонимларининг лисоний тадқиқи: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. — Фарғона, 2020. — 58 б.

Кенжаева С. Э. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион-мотивацион асослари ва тавсифи: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. — Қарши, 2020. — 50 б.

Низомова Ш. Ўзбек тахаллусларининг тарихий-лисоний тадқиқи: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. — Наманган, 2021. — 60 б.

Ҳамидова К. Фарғона водийси топонимиясида вариантлик: юзага келиш омиллари, турлари ва функционал хусусиятлари: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. — Қўқон, 2022. — 56 б.

Юнусова Б. М. «Алпомиш» достони ономастик бирликларининг лексик-семантик ва услубий тадқиқи: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. — Наманган, 2022. — 60 б.

Yuldashev O. T. O'zbek tili gemeronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) disser. avtoref. — Namangan, 2023. — 56 b.

Sativoldiyeva D. S. O'zbek tili toponimik tizimida konversiya va tranonimizatsiya: filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) disser. avtoref. — Namangan, 2024. — 58 b.

Халилова Н. Қо‘қон хонлиги тарихига доир манбалардаги антропонимларнинг сotsiolingvistik va lingvokulturologik tadqiqi: filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) disser. avtoref. — Qo‘qon, 2025. — 58 b.

Islomova D. A. Toponimik indikatorlarning leksik-semantik va funksional sadiqi: filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) disser. — Namangan, 2026. — 161 b.

Mirzaxmedova O. A. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridagi onomastik birliklarning tarixiy-lisoniy sadiqi: filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) disser. — Namangan, 2026. — 147 b.

Ономастик бирликларнинг социолингвистик, этнолингвистик, лингвопоэтик, лингвокультурологик tadqiqi masalalari: xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. — Toshkent, 2022. — 460 b. — URL: <https://namdu.uz/books/16966> (murojaat sanasi: 03.09.2026).

Onomastik birliklarning sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik, lingvokulturologik tadqiqi masalalari: II xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari / N. Uluqov. — Toshkent: Bookmany print, 2024. — 350 b.

III. Uluslararası sempozyumu tam metin bildiri kitobi / III xalqaro onomastika simpozumi materiallari to‘plami. — Namangan: Bookmany print, 2023. — 340 b.

O‘zbek tilshunosligi rivoji va takomilida Ernst Begmatov ilmiy merosining o‘rni: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. — Namangan, 2026. — 670 b.

Uluqov N., Solixadjayeva H., Qoraboyev U. O‘zbek va turk geontonimlarining etnolingvistik, lingvokulturologik tahlili. — Toshkent: Bookmany print, 2025. — 124 b.

Uluqov N., Solixadjayeva H. O‘zbek va turk geontonimlari. — Toshkent: Bookmany print, 2026. — 124 b.

Uluqov N. Bayram turizmi va uning yo‘nalishlari hamda manbalari. — Toshkent: Bookmany print, 2025. — 46 b.

O‘zbek va turk geontonimlari: kichik ensiklopedik lug‘at / Nosirjon Uluqov va boshq. — Toshkent: Bookmany print, 2026. — 240 b.

Qulmamatov Do'smamat Sattarovich,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori, Turon
fanlar Akademiyasining akademigi,
filologiya fanlari doktori